




## Navoiy viloyatining sanoat ishlab chiqarishi (2020- yil yanvar-avgust)

**Asosiy iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha  
sanoat ishlab chiqarish hajmi,  
mlrd. so'm, o'zgarish sur'ati, % da**



- B** - Tog'-kon sanoati ochiq konlarni ishlash
- C** - Ishlab chiqaradigan sanoat
- D** - Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash
- E** - Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni utilizatsiya qilish

Dastlabki ma'lumotlar bo'yicha 2020- yilning yanvar-avgust oylarida viloyatimiz korxonalarini tomonidan 40 240,0 mlrd. so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilgan bo'lib, 2019- yilning yanvar-avgust oylariga nisbatan sanoat ishlab chiqarishning fizik hajm indeksi\* 108,3 % ni tashkil etdi.

Sanoat ishlab chiqarish tarkibida eng katta ulush ishlab chiqaradigan sanoat hissasiga to'g'ri kelib, uning jami sanoat ishlab chiqarishdagi ulushi 83,6 % ni tashkil etdi.





## Asosiy iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha sanoat ishlab chiqarish

Jami sanoat ishlab chiqarish fizik hajmi o'sishining asosiy omili bo'lib, suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni utilizatsiya qilishda - 69,5 % ga va elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalashning - 19,0 % ga va ishlab chiqaradigan (qayta ishlash) sanoatning - 8,3 % ga hamda , tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash sanoatida - 3,4 % ga o'sishiga xizmat qildi.

\*Sanoat ishlab chiqarishining fizik hajmi indeksi ishlab chiqarilgan mahsulotlar (ishlar, xizmatlar) hajmining taqqoslanadigan davrlardagi o'zgarishini tavsiflovchi nisbiy ko'rsatkichdir.



## Tog‘-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash





Tog‘-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash korxonalari tomonidan 2020- yilning yanvar-avgust oylarida ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 4 114,9 mld. so‘mni yoki jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 10,2 % ini tashkil etdi.



## Ishlab chiqaradigan sanoat

2020- yilning yanvar-avgust oylarida ishlab chiqaradigan sanoat korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 33 644,0 mld. so‘mni yoki jami sanoat mahsulotlarining 83,6 % ini tashkil etdi.







## Ishlab chiqarishning texnologik tarkibi bo'yicha ishlab chiqaradigan sanoat tarkibi, % da

O'tgan yilning mos davri bilan solishtirganda ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida yuqori texnologiyali tarmoqning ulushi 0,3 % ni (2019- yil yanvar-avgust oylarida - 0,3 %), o'rta-yuqori texnologiyali - 5,5 % (6,9 %), o'rta-quyi texnologiyali - 87,5 % (84,6 %) va quyi texnologiyalisi – 6,7 % (8,2 %) ni tashkil etdi.

2019- yil  
yanvar-avgust



2020- yil  
yanvar-avgust



yuqori texnologiyali

quyi texnologiyali

o'rta-yuqori texnologiyali

o'rta-quyi texnologiyali

Jami ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarishning ulushi - 5,3 % (2019- yil yanvar-avgust oylariga nisbatan fizik hajm indeksi - 98,3 %), metallurgiya sanoatining ulushi - 79,4 % (2019- yil yanvar-avgust oylariga nisbatan fizik hajm indeksi - 106,9 %), to'qimachilik, kiyim, teri mahsulotlarini ishlab chiqarishning ulushi - 3,5 % (2019- yil yanvar-avgust oylariga nisbatan fizik hajm indeksi - 91,4 %), oziq-ovqat, ichimliklar va tamaki mahsulotlarini ishlab chiqarishning ulushi - 2,9 % (2019- yil yanvar-avgust oylariga nisbatan fizik hajm indeksi - 91,7 %), kimyo mahsulotlari, rezina va plastmassa buyumlarini ishlab chiqarishning ulushi - 7,1 % (2019- yil yanvar-avgust oylariga nisbatan fizik hajm indeksi - 99,7 %) ni tashkil etdi.



## Ishlab chiqaradigan sanoatda yirik sanoat korxonalarini tomonidan ayrim turdag'i mahsulotlarni ishlab chiqarish


Sanoat mahsulotlari	2019- yil yanvar-avgust	2020- yil yanvar-avgust	2019- yil yanvar-avgust oylariga nisbatan o'sish, % da
<b>Portlandsement, ming tonna.</b>	2 395,0	2 413,0	100,8
<b>So'ndirilmagan va so'ndirilgan ohak, tonna.</b>	40 358,0	34 983,0	86,7
<b>Ammoniy nitrat, ming tonna azod</b>	163,72	123,45	75,4
<b>Natriy gidroksidi (kaustik soda), ming tonna.</b>	12,22	45,41	371,6
<b>Kislород, ming m<sup>3</sup>.</b>	102,05	121,99	119,5
<b>Temir beton, tonna.</b>	32 149,6	14 306,0	44,5
<b>Birinchi navli undan tayyorlangan bug'doy noni og'irligi 600 g (buxanka), tonna.</b>	380,23	306,63	80,6
<b>Ishlov berilgan suyuq sut, tonna.</b>	788,02	653,6	82,9

Texnologik jihozlarni kapital qayta tiklash ishlari, kimyo korxonalarida ishlab chiqarish quvvatlaridan foydalanish hajmini oshirish imkonini berib, o'tgan yilning shu davriga nisbatan, portlandsement (2019- yil yanvar-avgust oylariga nisbatan 100,8%), hamda kaustik soda mahsulotlarida (3,7 m) o'sish ko'rsatkichlari qayd etildi.

Shuningdek, ammoniy nitrat mahsuloti (2019- yilning yanvar-avgust oylariga nisbatan- 75,4 %) ishlab chiqarish sanoatida pasayishi kuzatildi.



## Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash



Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash korxonalarini tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 2 373,3 mlrd. so'mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 5,9 % ini) tashkil etdi.

2020- yilning yanvar-avgust oylarida, sanoatning mazkur tarmog'ida elektr energiyani ishlab chiqarish, uzatish va taqsimlash, bug' bilan ta'minlash tizimlari va havoni konditsiyalash o'tgan yilning mos davriga nisbatan fizik hajm indeksi 19,0 % ga oshganligi kuzatildi.





## Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash sohasida yirik sanoat korxonalarini tomonidan sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish

Sanoat mahsulotlari	2019- yil yanvar-avgust	2020- yil yanvar-avgust	Farqi +/-
Elektroenergiya, mln.kVt/s	6 154,2	7 682,19	1 527,99
Issiqlik energiyasi, ming gkal	2 513,61	2 370,44	-143,17



## Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish

Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish korxonalarini tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 107,8 mlrd. so'mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 0,3 % ni) tashkil etdi.




## Yirik sanoat korxonalarini tomonidan suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish sohasidagi bajarilgan ishlar hajmi

	2019- yil yanvar-avgust	2020- yil yanvar-avgust	Farqi +/-
Oqava suvlarni yo'qotish, transportirovka qilish va ishlov berish bo'yicha xizmatlar, mln. so'm	9 752,8	21 488,0	11 735,2
Xavfli (zaharli) sanoat chiqindilarini yig'ish bo'yicha xizmatlar, mln. so'm	21,1	9,3	-11,8
Boshqa guruhlarga kiritilmagan, qayta foydalanishga yaroqli yig'ilgan boshqa xavfsiz chiqindilar, tonna	20 445,0	34 391,08	13 945,18



## Iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarish

Tayyor mahsulot turlarini kengaytirish va ishlab chiqarilishini qo'llab-quvvatlash bo'yicha amalga oshirib kelinayotgan chora-tadbirlar natijasida, iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi 2 313,6 mlrd. so'mni tashkil etdi va 2019- yilning mos davriga nisbatan 3,0 % ga o'sgan holda, uning jami sanoatdagi ulushi 5,7 % ni tashkil etdi.



2019- yilning mos davriga nisbatan solish-tirganda 2020- yil yanvar-avgust oylarida iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarish tarkibida nooziq-ovqat mahsulotlarining ulushi 60,2 % dan 60,4 % gacha kamayganligi qayd etildi.

Oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish tarkibida vino-aroq mahsulotlari va pivo 0,5 % (2019- yil yanvar-avgust oylarida 0,02 %) ni tashkil etdi.

Hududlar kesimida iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarilishining viloyat jami hajmidagi eng yuqori ulushi Navoiy shahriga to'g'ri kelib, 31,9 % ni, shuningdek, Karmana tumani 16,6 % ni, Xatirchi tumani 14,2 % ni, Qiziltepa tumani 12,2 % ni hamda Navbahor tumani 6,4 % ni tashkil etdi.

Shuningdek, iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarilishining o'sish sur'atida viloyat o'sish sur'ati (103,0 %) darajasidan yuqori ko'rsatkich Navoiy shahri (110,0 %) hamda Konimex tumanida (105,3 %) qayd etildi.



**Hududlar bo'yicha iste'mol mahsulotlari ishlab  
chiqarish hajmi, tarkibi va o'sish sur'ati  
(2020- yilning yanvar-avgust oylarida)**

	Mlrd. so'm	Jamiga nisbatan ulushi, % da	2019- yil yanvar-avgust oylariga nisbatan, % da
<b>Navoiy viloyati</b>	<b>2 313,6</b>	<b>100,0</b>	<b>103,0</b>
<b>Navoiy sh.</b>	<b>737,4</b>	<b>31,9</b>	<b>110,0</b>
<b>Zarafshon sh.</b>	<b>142,2</b>	<b>6,2</b>	<b>96,6</b>
<i>tumanlar</i>			
<b>Karmana</b>	<b>384,6</b>	<b>16,6</b>	<b>102,3</b>
<b>Konimex</b>	<b>55,1</b>	<b>2,4</b>	<b>105,3</b>
<b>Qiziltepa</b>	<b>283,0</b>	<b>12,2</b>	<b>102,5</b>
<b>Navbahor</b>	<b>149,0</b>	<b>6,4</b>	<b>93,0</b>
<b>Nurota</b>	<b>141,7</b>	<b>6,1</b>	<b>103,1</b>
<b>Tomdi</b>	<b>21,9</b>	<b>1,0</b>	<b>100,0</b>
<b>Uchquduq</b>	<b>70,4</b>	<b>3,0</b>	<b>99,5</b>
<b>Xatirchi</b>	<b>328,2</b>	<b>14,2</b>	<b>98,1</b>

Hududlar kesimida oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarilishining viloyatimizda jami hajmidagi eng yuqori ulushi Navoiy shahriga to'g'ri kelib, 25,5 %, shuningdek, Qiziltepa tumani 18,6 % ni, Xatirchi tumani 18,0 % ni, Karmana tumani 11,8 % ni hamda Navbahor tumani 8,7 % ni tashkil etdi.

Shuningdek, oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarilishining o'sish sur'atida eng yuqori ko'rsatkich Qiziltepa tumanida (114,7) qayd etildi.



**Hududlar bo'yicha oziq-ovqat mahsulotlari  
ishlab chiqarish hajmi, tarkibi va o'sish sur'ati  
(2020- yilning yanvar-avgust oylarida)**

	MIRD. SO'M	JAMIGA NISBATAN ULUSHI, % DA	2019- YIL YANVAR-AVGUST OYLARIGA NISBATAN, % DA
<b>Navoiy viloyati</b>	<b>921,7</b>	<b>100,0</b>	<b>103,5</b>
<b>Navoiy sh.</b>	<b>235,3</b>	<b>25,5</b>	<b>107,8</b>
<b>Zarafshon sh.</b>	<b>75,9</b>	<b>8,2</b>	<b>103,1</b>
<i>tumanlar</i>			
<b>Karmana</b>	<b>109,1</b>	<b>11,8</b>	<b>98,3</b>
<b>Konimex</b>	<b>27,6</b>	<b>3,0</b>	<b>96,6</b>
<b>Qiziltepa</b>	<b>171,1</b>	<b>18,6</b>	<b>114,7</b>
<b>Navbahor</b>	<b>79,9</b>	<b>8,7</b>	<b>97,5</b>
<b>Nurota</b>	<b>7,5</b>	<b>0,8</b>	<b>91,8</b>
<b>Tomdi</b>	<b>11,2</b>	<b>1,2</b>	<b>97,4</b>
<b>Uchquduq</b>	<b>38,2</b>	<b>4,2</b>	<b>99,1</b>
<b>Xatirchi</b>	<b>165,8</b>	<b>18,0</b>	<b>97,5</b>

Hududlar kesimida nooziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarilishining viloyatda jami hajmidagi eng yuqori ulushi Navoiy shahriga to'g'ri kelib, 36,0 %, shuningdek, Karmana tumani 19,8 % ni, Xatirchi tumani 11,7 % ni, Nurota tumani 9,6 % ni hamda Qiziltepa tumani 8,0 % ni tashkil etdi.

Shuningdek, nooziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarilishining o'sish sur'atida viloyat o'sish sur'ati (102,6 %) darajasidan yuqori ko'rsatkich Konimex tumanida (115,6 %) qayd etildi.



**Hududlar bo'yicha nooziq-ovqat mahsulotlari  
ishlab chiqarish hajmi, tarkibi va o'sish sur'ati  
(2020- yilning yanvar-avgust oylarida)**

	Mlrd. so'm	Jamiga nisbatan ulushi, % da	2019- yil yanvar-avgust oylariga nisbatan, % da
<b>Navoiy viloyati</b>	<b>1 391,9</b>	<b>100,0</b>	<b>102,6</b>
<b>Navoiy sh.</b>	<b>502,1</b>	<b>36,0</b>	<b>111,0</b>
<b>Zarafshon sh.</b>	<b>66,3</b>	<b>4,8</b>	<b>90,0</b>
<i>tumanlar</i>			
<b>Karmana</b>	<b>275,5</b>	<b>19,8</b>	<b>104,0</b>
<b>Konimex</b>	<b>27,5</b>	<b>2,0</b>	<b>115,6</b>
<b>Qiziltepa</b>	<b>111,9</b>	<b>8,0</b>	<b>88,1</b>
<b>Navbahor</b>	<b>69,1</b>	<b>5,0</b>	<b>88,2</b>
<b>Nurota</b>	<b>134,2</b>	<b>9,6</b>	<b>103,8</b>
<b>Tomdi</b>	<b>10,7</b>	<b>0,8</b>	<b>102,9</b>
<b>Uchquduq</b>	<b>32,2</b>	<b>2,3</b>	<b>100,0</b>
<b>Xatirchi</b>	<b>162,4</b>	<b>11,7</b>	<b>98,8</b>



**Xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar tomonidan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish**

Hisobot davrida xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar tomonidan 870,9 mlrd. so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarildi.

Xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalarning umumiy ishlab chiqarishdagi ulushi 2,2 % ni tashkil etdi.




## Navoiy viloyati hududlar kesimida sanoat ishlab chiqarish hajmlari

	2020- yil yanvar-avgust mlrd. soʻm	Fizik hajm indeksi, % da
<b>Navoiy viloyati</b>	<b>40 240,0</b>	<b>108,3</b>
<b>Navoiy sh.</b>	<b>33 978,2</b>	<b>108,2</b>
<b>Zarafshon sh.</b>	<b>163,4</b>	<b>92,8</b>
<i>tumanlar</i>		
<b>Karmana</b>	<b>4 203,9</b>	<b>116,8</b>
<b>Konimex</b>	<b>241,1</b>	<b>101,4</b>
<b>Qiziltepa</b>	<b>725,6</b>	<b>106,5</b>
<b>Navbahor</b>	<b>324,6</b>	<b>107,0</b>
<b>Nurota</b>	<b>169,1</b>	<b>101,5</b>
<b>Tomdi</b>	<b>22,9</b>	<b>100,2</b>
<b>Uchquduq</b>	<b>76,0</b>	<b>95,5</b>
<b>Xatirchi</b>	<b>335,2</b>	<b>99,0</b>



## Navoiy viloyati shaxar va tumanlar kesimida ishlab chiqarish fizik hajm indeksi, iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarishning o'sish sur'ati % da

Viloyatimizda sanoat ishlab chiqarish fizik hajm indeksining kamayishini, Zarafshon shahrida (2019- yilning yanvar-avgust oylariga nisbatan 92,8 %), Uchquduq tumanida ( 95,5 %) hamda Xatirchi (99,0 %) tumanida sanoat ishlab chiqarish hajmlari fizik hajm indeksining sezilarli darajada pasayganligi bilan izohlashimiz mumkin.




Iste'mol mahsulotlarini ishlab chiqarish Navoiy shahrida (2019- yilning yanvar-avgust oylariga nisbatan 110,0 %), Konimex tumanida (105,3 %) Nurota tumanida (103,1 %) hamda Qiziltepa tumanida (102,5 %) sezilarli darajada oshdi.



## Sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishda kichik biznesning ulushi (2020- yil yanvar-avgust oylarida, % da)

Hisobot davrida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan 2 515,0 mlrd. so‘mlik sanoat mahsuloti ishlab chiqarilib, uning umumiy ishlab chiqarish hajmidagi ulushi 6,3 % ni tashkil etdi.




Shahar va tumanlar kesimida kichik biznesning sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi eng yuqori ulushi Uchquduq tumanida (jami sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi ulushi 100,0 %), Xatirchi (100,0 %), Tomdi (100,0%), Nurota (99,6%), Zarafshon shahrida (95,1%) va Navbahor tumanlarida (65,3%) kuzatildi.

Viloyatimizda shahar va tumanlar kesimida sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmida kichik biznes subyektlarining ulushi tahlili shuni ko‘rsatdiki, Navoiy shahrida (1,5 %), Karmana (16,1 %), Konimex tumanlarida (24,5 %) sanoat ishlab chiqarish hajmlaridagi kichik biznes subyektlari ulushining kamligini, mazkur hudularda joylashgan yirik sanoat korxonalarining ishlab chiqarish hajmlari yuqori ekanligi bilan izohlash mumkin.




**Viloyatimizda faoliyat yuritayotgan sanoat korxonalari soni, birlikda  
(2020- yil 1-sentyabr holatiga ko'ra)**

Bugungi kunda viloyatimizda 3 235 ta sanoat korxonalari faoliyat ko'ssatmoqda, shundan 700 tasi (mavjud korxonalar umumiylar sonining 21,6%) Navoiy shahriga, 522 tasi (16,1 %) Karmana tumaniga, 418 tasi (12,9 %) Xatirchi tumaniga to'g'ri kelmoqda.



**Viloyatimizda yangi tashkil etilgan sanoat korxonalari soni, birlikda  
(2020- yil 1-sentyabr holatiga ko'ra)**





2020- yil yanvar-avgust oyida viloyatimizda 706 ta yangi sanoat korxonalari tashkil etildi, jumladan 157 tasi (jami yangi tashkil etilgan sanoat korxonalari sonidagi ulushi 22,2 %) Xatirchi tumanida, 125 tasi (17,7 %) Uchquduq tumanida, 92 tasi (13,0 %) Karmana tumanida, 82 tasi (11,6 %) Qiziltepa tumanida, 79 tasi (11,2 %) Navoiy shahrida hamda 62 tasi (8,8 %) Zarafshon shahrida tashkil etildi.

**Navoiy viloyati statistika boshqarmasining  
sanoat statistikasi bo'limi**  
*Tel.: (79) 223-33-29*